

**1964-1967-YILLARDA TOSHKENT SHAHRIDA TEZ TIBBIY
YORDAM XIZMATIDA KADRLAR SIYOSATI VA UNING
SAMARADORLIGI**

Yergasheva Muxlisa Soattullayevna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada 1964–1967 yillarda Toshkent shahridagi tez tibbiy yordam stansiyalarida faoliyat yuritgan sayyor tibbiyot xodimlari (shifokorlar va feldsherlar)ning ish faoliyati, shuningdek, kadrlar bilan ta'minlanganlik darajasi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: tez tibbiy yordam, poliklinika, shifokor, feldsher, umumiy tibbiy brigadalar, shoshilinch yordam.

Kirish. Tez tibbiy yordam xizmati aholi salomatligini saqlash tizimining eng muhim va ilg'or bo'g'inlaridan biri hisoblanadi. Uning asosiy vazifasi to'satdan yuzaga kelgan kasalliklar, og'ir hayotiy xavfli holatlar va jarohatlanganlarga tezkor tibbiy yordam ko'rsatishdan iborat.

1960-yillarda Toshkent shahrida tez tibbiy yordam tizimi rivojlanish bosqichida bo'lib, ayniqsa sayyor tibbiy xodimlar shifokor va feldsherlarning faoliyati katta ahamiyat kasb etgan. Shu bilan birga, kadrlar bilan ta'minlash, ularning malakasi va ish samaradorligi bilan bog'liq bir qator muammolar mavjud bo'lgan.

Materiallar va metodlar. Tadqiqot jarayonida Toshkent shahar tez tibbiy yordam stansiyasi faoliyatiga oid statistik ma'lumotlar va hisobotlar tahlil qilindi.

Tez tibbiy yordam xodimlari bemorlarga ko'chada, uyda yoki ish joyida yordam ko'rsatganliklari sababli, ulardan yuqori darajada tezkorlik, aniq tashxis qo'yish va to'g'ri taktik qaror qabul qilish talab etilgan.

Shu sababli, sayyor brigadalarni malakali shifokor va feldsherlar bilan ta'minlash dolzarb vazifa bo'lgan.

Asosiy qism. 1967-yil 1 yanvar holatiga ko'ra, Toshkent tez tibbiy yordam stansiyasida 80 ta sanitar avtomashinasi va 298 nafar shifokor kechayu kunduz faoliyat yuritgan. Biroq kadrlar bilan ta'minlanganlik darajasi yetarli bo'lmagan: sayyor shifokorlar bilan ta'minlanish 69,5%, asosiy shifokorlar 76,7%, o'rinbosar shifokorlar 23,3%. Jami 468 ta shtat birligidan atigi 206 tasi amalda faoliyat ko'rsatgan (44%). Bu holat 1966-yilda bemorlarning 35% iga feldsherlar tomonidan xizmat ko'rsatilishiga va chaqiruvlarni kechikib bajarish (9,9%) holatlariga olib kelgan. Vaqtinchalik ishlagan shifokorlar ko'pincha tez tibbiy yordam talablariga to'liq javob bermagan, bu esa tibbiy yordam sifati va hujjatlashtirish darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Toshkent tibbiyot instituti talabalarining tayyorgarlik darajasi ham yetarli bo'lmagan, ularning ish staji



odatda 2–5 oydan oshmagan. Shu sababli, stansiya rahbariyati yil davomida 70 nafarga yaqin vaqtinchalik shifokorlarni jalb qilishga majbur bo'lgan.

Aholiga sifatli tibbiy yordam ko'rsatish maqsadida 1963-1967-yillarda 8 ta ixtisoslashgan brigada tashkil etildi. Bu brigadalar uchun kadrlar ilmiy-tadqiqot institutlari va malaka oshirish kurslarida tayyorlangan. Jumladan: 6 nafar reanimatolog, 5 nafar anesteziolog, 2 nafar nevropatolog, 14 nafar elektrokardiolog tayyorlangan. Shu bilan birga, bolalar uchun maxsus 4 ta kecha-yu kunduz ishlovchi pediatriya brigadasi tashkil etildi.

Kadrlar bilan ta'minlashda qator muammolar kuzatilgan: shahar tibbiyot muassasalaridan ajratilgan shifokorlar rejadagidan ancha kam bo'lgan, yosh mutaxassislar yetarli miqdorda jalb etilmagan, ixtisoslashgan mutaxassislarga ehtiyoj yuqori bo'lgan. 1967-yil holatiga ko'ra: shifokorlar shtatining 68% to'ldirilgan; o'rta tibbiy xodimlar 93%. Shu bilan birga, xodimlar almashinuvi yuqori bo'lgan. Masalan, 1966-yilda 60 nafar o'rta tibbiy xodim ishdan bo'shagan.

Kadrlar malakasini oshirish maqsadida: 3 oylik maxsus kurslar tashkil etilgan; ish joyida o'qitish tizimi joriy qilingan; ilmiy konferensiyalar o'tkazilgan. 1966 yilda 77 nafar shifokor malaka oshirish kurslarida ishtirok etgan bo'lib, ularning 68 nafari sayyor shifokor sifatida tayyorlangan.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, 1964-1967-yillarda Toshkent shahrida tez tibbiy yordam xizmatida kadrlar masalasi eng dolzarb muammolardan biri bo'lgan.

Asosiy muammolar: shifokor va feldsherlar yetishmasligi, malakali kadrlar tanqisligi, kadrlar almashinuvining yuqoriligi, ixtisoslashgan xizmatlarning yetarli darajada rivojlanmaganligi. Ushbu muammolarni hal qilish uchun tez tibbiy yordam stansiyasini yirik ko'p tarmoqli kasalxona bilan integratsiya qilish, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda moddiy-texnik bazani mustahkamlash zarurligi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Tez tibbiy yordam. – Toshkent: “Medisina”, 1967.
2. Shoshilinch holatlarda birinchi yordam bo'yicha qo'llanma. – Moskva, 1966.
4. Shoshilinch tibbiy yordam. Ilmiy maqolalar to'plami. – Moskva, 1960.
5. Tez tibbiy yordam haqida ma'lumotlar.

